



2025

№4

ISSN 3060-527X

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR.

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL



**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**

International scientific methodological journal

№ 4-son, 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:

Tilavov Muxtor Hasan o'g'li

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri).

Saidov Azamat Ismoilovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Samarqand davlat chet tillar instituti magistratura bo'limi boshlig'i).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Davlatov Suxrob Sayitjonovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti O'quv-uslubiy departament boshlig'i).

Adizov Bobir Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish departamenti boshlig'i).

Paxrutdinov Shukriddin Ilyosovich - siyosiy fanlar doktori, professor. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Akramova Shaxnoza Abrorovna - pedagogika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasini boshlig'i, podpolkovnik).

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasini dotsenti).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri).

G'ofurov Azizbek Umarjonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, (Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mexriniso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalaari va elektronika kafedrasini dotsenti).

Xotamov Shuxrat Nosirovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy texnik instituti Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti).

Fayziyeva Umida Asadovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasini dotsenti).

Axmadoy Nazirjon Rahmat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini katta o'qituvchisi).

Uzoqov Asliddin Mexritdinovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari).

Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (University of Business and Science Oliy ta'lim muassasasi "Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi" boshlig'i).

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li - Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Saparova Shahlo Ramazonovna,
Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
Pedagogika kafedrası tayanch doktoranti
email: saparova.shahlo@mail.ru

SADRIDDIN AYNINING BOLALAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI HAMDA ASARLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning buyuk pedagogi va adabiyotshunosi, o'zbek va tojik tillarida ijod qilib, bolalar adabiyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan Sadridin Ayniy (1878-1954) va uning asarlari yoritilgan. Ayniyning asarlari, xususan, "Eski maktab" va "Qiz bola yoki Xolida" kabi darsliklari bolalar va yoshlar uchun tarbiya, ilm olish, oila va jamiyat mavzularini yoritib, ulkan ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiy merosi zamonaviy pedagogika va bolalar adabiyotga muhim ta'sir ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: Sadridin Ayniy, "Eski maktab" va "Qiz bola yoki Xolida" darsliklari, pedagogika, bolalar adabiyoti, darsliklar, realist asarlar, tarbiya, bilim olish, oila, jamiyat, didaktik matnlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество Садриддина Айни (1878-1954) - великого педагога и литературного критика XX века, писавшего на узбекском и таджикском языках и внесшего большой вклад в развитие детской литературы. Произведения Айни, в частности, такие учебники, как "Eski maktab" (Старая школа) и "Qiz bola yoki Xolida" (Девочка, или Халида), имеют большое значение для детей и молодежи, освещая темы воспитания, образования, семьи и общества. Его творческое наследие оказало значительное влияние на современную педагогику и детскую литературу.

Ключевые слова: Садриддин Айний, учебники "Eski maktab" (Старая школа) и "Qiz bola yoki Xolida" (Девочка, или Халида), педагогика, детская литература, учебники, реалистические произведения, воспитание, обучение, семья, общество, дидактические тексты.

Annotation: This article discusses the work of Sadridin Ayniy (1878-1954), a great pedagogue and literary critic of the 20th century, who wrote in Uzbek and Tajik languages and made a great contribution to the development of children's literature. Ayniy's works, in particular, such as "Eski maktab" (Old school) and "Qiz bola yoki Xolida" (Girl or Khalida) textbooks, are of great importance for children and youth, covering the topics of upbringing, education, family and society. His creative heritage has had a significant impact on modern pedagogy and children's literature.

Keywords: Sadridin Ayniy, "Eski maktab" (Old school) and "Qiz bola yoki Xolida" (Girl or Khalida) textbooks, pedagogy, children's literature, textbooks, realistic works, upbringing, education, family, society, didactic texts.

Kirish. 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 3-bob 4-§da Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish haqida quyidagilar yoritilgan:

"Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlarini uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.”[12]

Shu konsepsiyaga asoslanib talabalarning dunyoqarashini yuksaltirishda jadid ma'rifatparvari Sadriddin Ayniyning asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishda quyidagi materiallar samarali natija beradi.

Sadriddin Ayniy	
Yil	Asarlar (voqea-hodisalar)
1878.15.04.	Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sektare qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan
1884-87	eski maktabda tahsil olgan
1890-91	Mir Arab madrasasida tahsil olgan
1892-93	Olimxon madrasasida tahsil olgan
1894-96	Badalbek madrasasida tahsil olgan
1895(1896)	birinchi g'azali "Guli surx" ("Qizil gul")
1896-99	Hoji Zohid madrasasida tahsil olgan
1899-1900	Ko'kaldosh madrasasida tahsil olgan
1903	Samarqandga borib, Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilgan usuli jadid maktablarini ko'radi, o'qish va o'qitish ishlari bilan tanishadi.
1907-1908	Buxoroga qaytgach, o'zi ham dastlab, tatar maktabida tojik tiliga tarjimon, so'ngra, shu yilda shunday maktab ochishga muvaffaq bo'ladi. Ayniy bolalar uchun ijod qilishni o'z maktabi talabalari uchun darslik yozishdan boshlab, "Alifbo" darsligini tartib beradi.
1909 va 1917	"Tahzib us-sibyon" (Yoshlar tarbiyasi) darsligi(Samarqand)
1909	Tartil ul-Qur'on (Orenburg)[3]
1914	Zaruriyoti diniya(Samarqand)[3]
"Yosh buxoroliklar" harakatida faol qatnashdi	
1918-21-yillar	tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi
1921	"Buxoro mang'it amirligining tarixi" ("Mang'itlar sulolasi tarixi")
1922(1920)	"Buxoro jallodlari" povesti
1924	"Odina" qissasi, "Qiz bola yoki Xolida" darslik (30 darsga mo'ljallangan)
1924	"Yana bu qaysi go'rdan chiqdi", "Puling halol bo'lsa, to'y qil" o'zbekcha fel'etonlari
1925	"Mashrab bobo", "E, to'nim" o'zbekcha fel'etonlari
1926	"Bilganim yo'q", "Kengash" o'zbekcha fel'etonlari
1926(1920)	"Buxoro inqilobi tarixi materiallari"
1926(1925)	"Tojik adabiyotidan namunalar"
1928	"Qul bobo yoki ikki ozod"
1927-29-yillar (1928)	"Doxunda" romani
1934(1935)	"Qullar" romani
1934	"Firdavsiy va uning "Shohnoma"si haqida"
1935	"Eski maktab" qissasi

242 turdagi hajviy she'r va maqolalari	
1939	"Sudxo'ring o'limi" hajviy povesti
1939	"Kamol Xo'jandiy", "Shayxur-ra'is Abu Ali ibn Sino"
1940	"Ustod Rudakiy"
1940	"Yetim" qissasi
1940	Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi
1942	"Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy"
1943	O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi
Muqanna va Temurmali boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar	
Tarixiy asarlar: "Marshi intiqom", "Insonning suv bilan janggi", "Yetti boshli dev", "Tarixiy bayram"(ocherk); "Yodgorlik", "Inqilib uchqunlari"(to'plam)[1]	
1948	"Alisher Navoiy"(Navoiyning "Xamsa"si), "Zayniddin Vosifiy" (uning "Badoye ul-vaqoye" asari haqida), "Mirza Abdulqodir Bedil", Muqimiy, G'afur G'ulom va Said Nazar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligi, "Fors va tojik tillari haqida", "Tojik tili" kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea bo'ldi.
1948	filologiya fanlari doktori
1949-54	"Esdaliklar" (to'rt qismdan iborat)
Ahmadi Devband[2]	
1950	professor
1951-54	Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi prezidenti
1954.15.06.	Dushanbeda vafot etgan

1-jadval[13]

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar: XX asrning buyuk pedagogi, o'zbek va tojik tilida ijod qilgan jadid ma'rifatparvari, Sadriddin Ayniy (1878-1954) bolalar uchun asarlar, darsliklar yaratib, bolalar adabiyotiga katta hissa qo'shgan. 1909 va 1917-yilda Sadriddin Ayniy pedagogik asar "Tahzib us-sibyon" darsligini nashr ettirgan. Bu darslikda "Tarbiyali bola", "Odobli bola", "Ota-ona", "Maktab", "Ustoz muallim", "Marhamatli Ahmadjon", "To'g'rig'o'y va o'g'ri bola" kabi didaktik matnlar va she'rlari berilgan bo'lib, oiladagi ota-ona va bola hamda ustoz va shogird munosabatlari yorqin tarzda ochib berilgan. Ijodkorning 1920-yillarda ko'plab asarlarini nashr ettirgan. Shulardan biri 1924-yildagi "Qiz bola yoki Xolida" (o'ttiz dars) darsligi qizlar maktabiga mo'ljallangan. Asarda Xolida (Sadriddin Ayniyning qizining ismi ham Xolida edi) misolida qiz bolaning jamiyatda va oilada tutgan o'rni, farzand tarbiyasida maktab, oila va atrof-muhitning birdek ta'sir etishi haqida hikoya qilinadi. Masalan: 1-diagramma[13]

"Qiz bola ota-onasining eng sevimli bir mevasidir.

Qiz bola ota-onaning qayg'ulik chog'larida eng mehribon bir sirdoshidir.


Qiz bola qavmu-qarindoshlarining obro'yi va nomuslaridir.

Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir.

Qiz bola yurtning bog'i va butun elu ulusning chirog'idir"

Xolida kichkina qizcha bo'lishiga qaramay, yasan-tusanga va tilla-taqinchoqlarga juda o'ch bo'ladi, atrofidagi qizlarga ham shunga qarab munosabatda bo'ladi. Lekin ilmga chanqoq va odmigina qizcha Fotima bilan dugona bo'lgach uning dunyoqarashi o'zgaradi.

2-diagramma[13]



Bu nomdagi hikoyalar orqali o'quvchi Xolidaning mehnatsevar, o'qish va ilm olishga havas qiladigan qizcha sifatida shakllanganini ko'radi.

Ayniy barcha asarlarini hayotda ko'rib, boshidan kechirgan voqealar asosida yaratgan. Ayniqsa, u bolalar uchun yaratgan asarlari realistik nasriy asarlar sanaladi. "Eski maktab" qissasi Ayniyning avtobiografik asaridir. Bu asarda Sadriddin Ayniy 6 yasharligidan borgan maktablarining hayoti hamda undagi o'qish va o'qitish usullari haqida hikoya qilinadi. Maktabdagi eskicha o'qitish tizimi, domlaning bolalarga harflarni faqat qoriday yodlatishga odatlangani uchun, Kichkina Sadriddinning savodi chiqmaydi. Buni bilgan otasi har kuni o'g'li Sadriddin bilan 1 soat shug'ullanib, abjadni o'rgatadi. Navro'z saylida kichik Sadriddin o'zidan katta polvonni abjad hisobida mag'lub qiladi.

"Eski maktablarning sharoitini real aks ettiruvchi bu tasvirni o'qigan hozirgi yoshlar beixtiyor o'zlariga o'qish, bilim olish uchun yaratilgan qulay imkoniyatlar, yorug' va keng sinf xonalari, turli xil darsliklar, o'tirishga mo'ljallangan o'rindiqlar, doska eng muhimi, ularning barchasi bepul tashkil qilinganligini ko'z oldilariga keltirishlari va bundan ta'sirlanishlari tabiiy. Ushbu kitobni o'qigan o'quvchi o'z davri maktablarini beixtiyor qissada tasvirlangan maktabga qiyos qilar ekan, istiqbol davri yoshlariga uning barkamol avlod bo'lib ulg'ayishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratib berilganini yanada chuqurroq his etadi. O'z Vatani bilan faxrlanish, ozod va mustaqil, farovon va baxtiyor hayotdan minnatdorchilik hissi ortadi." [13]

(Quyidagi berilgan test orqali ushbu mavzuni mustahkamlash yoki jadvaldagi havoladan nusxa olish orqali bu testni google formda online bajarish mumkin.)

Testni bajarib bo'lgach "Yuborish" tugmasini bosgandan keyin "Ballarni ko'rish"ni tanlab to'plangan ball va javoblarni ko'rish mumkin.

Bu testni boshlash uchun havola:	https://forms.gle/d8kEs6i8KzdRvLaT6
*Google form testining QR kodi:	

Test

1. Sadriddin Ayniy qaysi yilda tug'ilgan?
 - a) 1870
 - b) 1878
 - d) 1880

- e) 1900
- 2. Sadriddin Ayniy Samarqandga qachon borgan?
 - a) 1901
 - b) 1903
 - d) 1910
 - e) 1920
- 3. Ayniy qaysi tillarda ijod qilgan?
 - a) Tojik va o'zbek
 - b) O'zbek va ingliz
 - d) Tojik va rus
 - e) Rus va ingliz
- 4. Ayniy Samarqandda qanday maktabni ko'rgan?
 - a) Usuli jadid maktablari
 - b) Klasik maktablar
 - d) Diniy maktablar
 - e) Navoiy maktablari
- 5. Sadriddin Ayniy qaysi yil maktab ochishga muvaffaq bo'lgan?
 - a) 1900
 - b) 1908
 - d) 1910
 - e) 1920
- 6. "Alifbo" darsligi qaysi maqsad uchun yozilgan?
 - a) Yoshlar uchun qo'llanma
 - b) O'qituvchilar uchun qo'llanma
 - d) Bolalar uchun darslik
 - e) Qizlar uchun darslik
- 7. "Tahzib us-sibyon" darsligi qaysi mavzularga bag'ishlangan?
 - a) O'qituvchilik
 - b) Tarbiya va odob
 - d) Tafakkur va fikrlash
 - e) Tarix
- 8. Ayniy "Tahzib us-sibyon" darsligida qanday didaktik matnlarni kiritgan?
 - a) Ota-ona va bola munosabati
 - b) Maktabdagi fanlar
 - d) Tabiyatshunoslik
 - e) Ijtimoiy hayot
- 9. Ayniy qaysi adabiy an'analarni rivojlantirgan?
 - a) Arab adabiyoti
 - b) Fors adabiyoti
 - d) Chor kitobga xos an'analar
 - e) G'arb adabiyoti
- 10. Ayniyning "Qiz bola yoki Xolida" asari qaysi maqsadga qaratilgan?
 - a) Qizlar maktabiga
 - b) O'g'il bolalar uchun darslikka
 - d) O'qituvchilar uchun qo'llanma
 - e) Yoshlar uchun tarix
- 11. "Qiz bola yoki Xolida" asarining bosh qahramoni kim?
 - a) Fotima
 - b) Xolida
 - d) Ahmadjon
 - e) Sabohat

12. Xolida qanday fazilatlar bilan ajralib turadi?
 - a) O'qish va ilm olishga havas
 - b) Tezkorlik
 - d) San'atga qiziqish
 - e) Yaxshi xulq
13. Sadriddin Ayniy qaysi yillarda ko'plab alifbe va o'qish kitoblarini nashr etgan?
 - a) 1890-yillar
 - b) 1910-yillar
 - d) 1920-yillar
 - e) 1930-yillar
14. Xolida asarida qanday o'zgarishlar ko'rsatilgan?
 - a) Uning xulqi va dunyoqarashi o'zgaradi
 - b) U o'qishni to'xtatadi
 - d) Xolida faqat oila bilan bog'liq bo'ladi
 - e) Xolida yomon xulqli bo'ladi
15. Sadriddin Ayniy o'zbek bolalar nasrining shakllanishiga qanday hissa qo'shgan?
 - a) Komediya asarlari yozgan
 - b) Bolalar uchun realistik proza yaratgan
 - d) Tarixiy dramalar yozgan
 - e) She'rlar yozgan
16. Ayniyning "Eski maktab" qissasi qanday mavzuga oid?
 - a) Tarixiy voqealar
 - b) Maktab hayoti
 - d) Muhabbat
 - e) Mehnat
17. "Xolida" asarida qiz bolalarning jamiyatdagi mavqei haqida qanday fikrlar bildirilgan?
 - a) Ular faqat o'qish bilan cheklanadi
 - b) Ular oila va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega
 - d) Ular faqat san'atga qiziqadi
 - e) Ular faqat tabiat bilan shug'ullanadi
18. Ayniyning "Eski maktab" qissasida qanday xulosaga kelinadi?
 - a) O'qishning ahamiyati
 - b) Otaning tarbiyadagi roli
 - d) Maktabning ta'siri
 - e) Jamiyatda mehnatning roli
19. Ayniyning asarlari qaysi jamiyat qatlamlariga taalluqli?
 - a) Faqat qizlarga
 - b) Faqat o'g'il bolalarga
 - d) Har bir yoshdagi bolalarga
 - e) Faqat boylarga
20. Ayniyning bolalar nasrining shakllanishiga qo'shgan hissasi qanday?
 - a) Tarbiya va ilm olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otgan
 - b) Yengil she'rlar yozgan
 - d) Jamiyatning muammolarini yoritgan
 - e) Fantastik asarlar yaratgan

test savollarining javoblari:

1. b) 1878
2. b) 1903
3. a) Tojik va o'zbek
4. a) Usuli jadid maktablari

5. b) 1908
6. d) Bolalar uchun
7. b) Tarbiya va odob
8. a) Ota-ona va bola munosabati
9. d) Chor kitobga xos an'analar
10. a) Qizlar maktabiga
11. b) Xolida
12. a) O'qish va ilm olishga havas
13. d) 1920-yillar
14. a) Uning xulqi va dunyoqarashi o'zgaradi
15. b) Bolalar uchun realistlik proza yaratgan
16. b) Maktab hayoti
17. b) Ular oila va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega
18. b) O'zining tarbiyadagi roli
19. d) Har bir yoshdagi bolalarga
20. a) Tarbiya va ilm olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otgan

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Sadriddin Ayniyni asarlari va pedagogik faoliyatining o'rganilishi, uning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Ayniy o'z asarlari orqali nafaqat bolalar uchun o'qish materiallari yaratgan, balki jamiyatdagi o'zgarishlarni, tarbiyani va ilm olishni ta'kidlashga katta e'tibor qaratgan.

Sadriddin Ayniyni "Tahzib us-sibyon" darsligi va boshqa pedagogik asarlari yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ushbu darsliklar orqali o'quvchilar tarbiya, odob-axloq, oiladagi ota-ona va bola munosabatlari kabi muhim mavzularda bilim olishgan. Bu asarlar bugungi kunda ham o'qituvchilar tomonidan muhim manba sifatida qo'llaniladi.

Sadriddin Ayniyni "Eski maktab" qissasi va "Qiz bola yoki Xolida" darsligi uning bolalar adabiyotiga qo'shgan muhim hissasi hisoblanadi. Ayniy, o'z asarlarida bolalarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratgan. "Qiz bola yoki Xolida" asarida qizlarning jamiyatdagi o'rni va farzand tarbiyasida oila va maktabning ahamiyati haqida chuqur fikrlar mavjud. Bu asarlar, ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimida jamiyatni shakllantiruvchi tarbiya va bilim olishni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Sadriddin Ayniy o'zining pedagogik va adabiy faoliyati orqali bolalar adabiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynagan. Uning asarlari, xususan, "Eski maktab" qissasi, "Qiz bola yoki Xolida" va "Tahzib us-sibyon" darsliklari bolalar va yoshlarni tarbiyalashda, ilm olishda va jamiyatda o'z o'rnini topishda muhim ahamiyatga ega. Ayniy o'z asarlarini hayotdan olingan voqealarga asoslangan holda yozgan bo'lib, uning ijodi bugungi kunda ham o'qituvchilar va bolalar uchun o'zining pedagogik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hamroyeva Zuhra "G'ijduvonning buyuk farzandi". Maqolalar to'plami. Buxoro nashriyoti. 2023. 120-bet.
2. Sadriddin Ayniy "Muntaxabot" Dushanbe "Adib" 2019. 480 b. Murattib va muallifi sarsuxan Alamxon Ko'charzoda.
3. Sadriddin Ayniy. Kuliyot. Childi 14. Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro. "Matbuot" Dushanbe 2005. 270 b. Nashrga tayyorlovchi: K.S.Ayniy
4. Saporova Shahlo Ramazonovna "Elbek philologist, teacher, children's poet" "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta'lim va tarbiya integratsiyasi" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar
5. Saporova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-

yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52>
<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

6. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>

7. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>

8. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023 ISSN (E): 2993-2769. P-564-572

9. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>

10. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek va Sadriddin Ayniy asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari" "Ta'limda istiqbolli izlanishlar" 10.08.2024. <https://buxdu.uz/ru/147-talimda-istiqbolli-izlanishlar/6070/6070-talimda-istiqbolli-izlanishlar/>

11. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/>

RAFIKOVA DILAFRUZ KAXXARALIYEVNA, Mirzakalon ismoiliyning "odamiylik qissasi" asarining ijtimoiy va axloqiy tarbiyaga oid o'rni hamda ahamiyati	95
AMANOVA GULNOZ ABDUKAYUMOVNA, Kredit-modul tizimi: mohiyati va tuzilishi	100
XAYDAROVA OLIIYA KAXXAROVNA, SUYUNOVA ZAMIRA ANVAR QIZI, Talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi	105
AMANIYAZOV SAODATDIN KOSBERGENOVICH, Chizmachilikdan ilmiy-tadqiqot ishlar metodologiyasi	110
BOZOROVA UMIDA BAXTIYOROVNA, IBODULLAYEVA BAXORA XAMIDULLAYEVNA, Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda loyiha ishidan foydalanish sinov-tajriba ishlari	115
YULDASHEVA MASHXURA MUZAFAROVNA, Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning pedagogik fenomeni sifatida	120
SUROBOVA RAYXONA ZOKIRJONOVNA, Tarix darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish metodikalarini takomillashtirish	125
HAYDARQULOVA MAHLIYO ZAFAROVNA, Boshlang'ich sinf darslarida loyihalash ta'lim metodidan foydalanishning ahamiyati	129
ТУРАЕВА ДИЛФУЗА ДАМИНОВНА, Изучение имитирующих слов в обучении русскому языку для детей и иностранных студентов	134
АДИЛОВА ТУРСУНОЙ КОДИРОВНА, Преподавание русской женской литературы в сравнительном контексте	140
QOBILJONOV QOSIMJON KOBILJON O'G'LI, Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahorati asoslari	146
IKRAMOVA AZIZA AMINOVNA, Sun'iy intellekt bilan ishlashda o'qituvchilarning bilimi va ko'nikmalari: raqamli savodxonlik, pedagogik dizayn, metodik integratsiya	152
JABBAROVA AZIZA SHIXNAZAROVNA, Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini fanlararo integratsiya asosida o'qitish imkoniyatlari	158
SAMATOVA DILAFRUZ ERKINOVNA, Talabalarda axborot-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	165
UMAROV SUNNATBEK RAVSHAN O'G'LI, Raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchining zamonaviy roli: muammolar va imkoniyatlar	171
JUMANOVA SOHIBA YULDOSHOVNA, Kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarda umumo'quv ko'nikmalarini shakllantirish: eksperimental tahlil	176
SAPAROVA SHAHLO RAMAZONOVNA, Sadridin Ayniyning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi hamda asarlarining pedagogik ahamiyati	182
ESHNAYEV NORTOJI JUMAYEVICH, Innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassis tayyorlash va uning nazariy jihatlari	190
NURIDDINOV RASULJON SAMIDJON O'G'LI,	194

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90
<https://t.me/fanistiqbollari>

Ta'limda istiqbolli izlanishlar //xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro-2025. № 4-son, 2-qism , B. 350.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



TA’LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnalga maqola nashr qilganligi uchun

SAPAROVA SHAHLO RAMAZONOVNA

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ta'limda istiqbolli izlanishlar
jurnali bosh muharriri**



M.H. Tavov

Sana